

O'ZBEKISTONNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHI

Zilola Salimjonova¹, Matkabiurov Shuxrat²

¹O'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti Iqtisodiyot va servis kafedrası

²Talaba, Ijtimoiy-iqtisodiy fakultet, Farg'ona davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5744349>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-noyabr 2021

Ma'qullandi: 15-noyabr 2021

Chop etildi: 20-noyabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Raqamli iqtisodiyot, innovasiya, kript o-aktiv, block-chein, kraud-fanding, elektron hukumat, raqamlashtirish.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada hozirgi jadallik bilan rivojlanayotgan zamonning fan salohiyatiga ya'ni iqtisodiyotga qanday ta'siri, shuningdek, O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga munosabati va olib borilayotgan ishlar haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan. O'ylaymanki, bu maqolani o'qib chiqish bilan zamon bilan hamnafas bo'lgan holda iqtisodiyotni rivojlantirish nechog'lik muhim ekanligini bilib olasiz.


Raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar asosidagi iqtisodiyotdir. Asosan elektron savdo, elektron biznes va ishlab chiqarilgan raqamli tovar va xizmatlarning savdosi. Raqamli iqtisodiyotda tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni raqamli valyuta (Elektron pullar) bilan hisob kitob qilinadi. Bugungi kunda, Raqamli iqtisodiyoti yuqori bo'lgan davlatlar quydagilar: AQSH, Singapur, Shvetsiya, Daniya, Niderlandiya, Finlyandiya, Xitoy, Norvegiya va Janubiy Koreya.

Yuqorida ko'rib chiqqan mamlakatlarimiz iqtisodiyotining asosiy drayveri turli xil bo'lishlariga qaramay, o'z mamlakatlarini rivojlantirishda Raqamli iqtisodiyotni keng qo'llashgan.

Buning yana bir sababi, ushbu mamlakatlarda raqamli elektron texnika, aloqa, elektron axborot almashuv kanallari va texnologiyalarining rivojlanganligidadir.

KATTA 7 LIK VA BRIKS (BRAZILIYA, RASSIYA, HINDISTON, XITOIY VA JANUBIY AFRIKA RESPUBLIKASI)

2020-2021 yillardagi Iqtisodiy o'sish (%) - Rivojlangan mamlakatlarning Iqtisodiy o'sish va rivojlanish tashkiloti



2019

2020(PANDEMIYANING 1- TO`LQINIDA)

2020 (PANDEMIYANING 2- TO`LQINIDA)

2021(PANDEMIYANING 1- TO`LQINIDA)

2021(PANDEMIYANING 2- TO`LQINIDA)

AQSH,B.BRITANIYA,GERMANIYA,FARNSIYA,ITALIYA,KANADA,YAPONIYA,
EVRO HUDUD,OSER(RMIO`RT)XITOIY,HINDISTONBRAZILIYA,RASSIYA,JAR

O`zbekistonni raqamli iqtisodiyotga o`tishi.

Yuqorida Raqamli Iqtisodiyotga ega bo`lgan davlatlar haqida qisqacha to`xtalib o`tdik.Endi O`zbekistnni Raqamli Iqtisodiyotga o`tish davri haqida to`xtalsak. O`zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoev tomonidan 2020 yil 13 fevral kuni axborot texnologiyalarini rivojlantirishga bag`ishlangan tadbirda keltirgan statistik ma`lumotlariga muvofiq AQShda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 10,9 foiz, Xitoyda 10 foiz, Hindistonda 5,5 foizni tashkil etadi. O`zbekistonda bu ko`rsatkich 2 foizdan ham oshmaydi deb takidlagan edilar.

Raqamlashtirishning ahamiyati va ta`sirini qanchalik ortib borayotganligini baholash uchun so`nggi o`n yillikdagi bir nechta yirik texnologik kompaniyalar va raqamli platformalarning jahon bozoridagi kapitalarining ulushini ko`rish kifoya. Xususan, BMTning savdo va rivojlanish konferensiyasi ma`lumotlarida qayd etilganidek, bu ko`rsatkich 2009 yilda 16 % ni tashkil etgan bo`lsa, 2018 yilning oxiriga kelib 56 % ga etgan.

Dunyoda ro`y berayotgan bunday jadal o`zgarishlar va raqobatning keskinlashuvi jarayonida innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni keng joriy etmasdan turib,



yaqin va uzoq kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, uning raqobatdoshligini ta'minlashimizda ilmiy va amaliy harakatlarni kuchaytirishni talab etadi.

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832-sonli qarori qabul qilinishi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim qadam bo'lib, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi eng muhim vazifalar belgilab berildi:

-investitsiyaviy va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllarini diversifikatsiya qilish uchun kriptto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni, jumladan mayning, smart-kontrakt, konsalting, emissiya, ayirboshlash, saqlash, taqsimlash, boshqarish, sug'urtalash, kraud-fanding (jamoaviy moliyalashtirish) texnologiyalarini joriy etish;

blokcheyn texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi tushunadigan, amaliy ish ko'nikmalariga ega malakali kadrlarni tayyorlash, shuningdek, yuqori malakali xorijlik mutaxassislarni jalb qilish;

kriptto -aktivlar bo'yicha faoliyat va "blokcheyn" texnologiyalari sohasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish, shuningdek, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda zarur huquqiy bazani yaratish;

raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish sohasida davlat organlari va tadbirkorlik sub'ektlarining yaqin hamkorligini ta'minlash.

Shu sababdan, mamlakatimizda "Elektron hukumat" tizimini joriy etish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi ma'muriy tartib va taomillardan o'tishni soddalashtirish, aholi turmush sifatini oshirish, investitsiya va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga qaratilgan.

Belgilab olingan asosiy vazifalar ijrosini amalga oshirish, shuningdek, mamlakatimizda raqamli jamiyat rivojlanishi, aholi va tadbirkorlar uchun qulay imkoniyatlar yaratish, byurokratik to'siqlar va korrupsiyaviy omillarlaridan holi samarali va ochiq davlat boshqaruvi tizimini rivojlantirish borasida ko'zlangan maqsadga erishish uchun bugungi kunda iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan "**Raqamli Iqtisodiyot**" milliy konsepsiyasini ishlab chiqilayotgan bo'lib, aynan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali yalpi ichki mahsulot hajmini qo'shimcha 30 %ga o'stirish imkoni berdi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologik rivojlanish sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishini raqamli iqtisodiyotsiz tasavvur qilish qiyin. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 2022 yilga kelib global YaIMning chorak qismi raqamli sohada bo'lishini taxmin qilinmoqda.

Xulosa qiladigan bo'lsak, jahon hamjamiyatining istiqboli, shu jumladan



O'zbekistonning ham, raqamli texnologiyalar va raqamlashtirishga bog'liqdir. BU esa, Mamlakat va aholining rivojlanishida asosiy o'rinni egarlaydi. Bunga erishish uchun raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning quyidagilarni taklif qilgan bo'lar edim:

-Raqamli texnologiyalarni Iqtisodiyotimizning barcha soxalri, tarmoqlariga eng quyidan yuqoriga qadar to'liq ta'minlash;

-Raqamli texnologiyalar bilan ishlay oladigan yosh, salohiyatli kadrlarni ishga yo'llash;

-Iqtisodiyotni liberallashtirish va ochiqligini ta'minlashda erkin axborot alamshuvini yo'lga qo'yish;

-Yangi innovatsiya va start up loyihalarini yaratishda electron platformani ishga tushirish;

- raqamli iqtisodiyot sohasidagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, yetakchi xalqaro texnologik kompaniyalar bilan o'zaro hamkorlikdagi loyihalarni amalga oshirishni yanada jadallashtirish: bugungi kunda raqamli texnologiyalar advlat sektor va ilmiy hamjamiyat tomonidan jadal rivojlantirilmoqda.

Shuning uchun davlat, aynan, ushbu sohalarda innovatsion loyihalar va IT-kompaniyalarni qo'llab quvvatlagan holda qulay shart sharoitni yaratishi lozim.

Shuningdek, davlat innovatsion va raqamli ekotizimni qo'llab-quvvatlash sohasida raqamli ta'limning zamonaviy metodlarini qo'llab-quvvatlashi, innovatsion xizmatlarni samarali tartibga solish normalarini ishlab chiqishi, yangi bozorlarni o'zlashtirishda ko'maklashishi hamda texnologik jarayonlarning chuqurlashuvida yuzaga chiqadigan risklarni pasaytirish choralarini ko'rishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning " Raqamli Iqtisodiyot va electron hukumatni keng joriy etishchora tadbirlari" to'g'risidagi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning **2020 yil 28 apreldagi raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish to'g'risidagi qarori**
3. O'zbekiston Respublikasining 2023-yilgacha raqamli iqtisodiyot strategiyasi
4. "Raqamli Iqtisodiyot asoslari" R.H.Ayupov, G.R.Boltaboeva Toshkent 2020 y
5. "Raqamli Iqtisodiyot" O'zbekistonda rivojlantirish istiqbollari va jahon amaliyoti. Xalqaro Ilmiy amaliy online Konferensiya. Toshkent 2020 y